



# Farg'ona Viloyatining Ekoturistik Imkoniyatlari Возможности Экотуризма Фергонской Области Ecotourism Opportunities In Fergona Region

Mo'minov Doniyor G'ulomovich

Qo'qon davlat pedagogika instituti

## ANNOTATSIYA

Farg'ona viloyati ekoturistik resurs turlarini o'rganish, uning tabiiy geografik jihatlarini ochib berish hamda ularni ekoturizmga yaroqliligini baholash masalalari yoritilgan. Ekoturizm tushunchasi va dunyo davlatlari tajribasi, Farg'ona viloyati ekoturizm imkoniyatlarini tahlil qilish, Farg'ona viloyatidagi ekoturistik resurslar izohlangan.

**Tayanch so'zlar:** ekologiya, geoekologiya, bioekologiya, urboekologiya, amaliy ekologiya, demoeologiya, inson ekologiyasi, ijtimoiy ekologiya, iqtisodiy ekologiya, umumiy ekologiya, turizm, rekreatsiya, tabiiy landshaft, antropogen landshaft, tabiiy resurslar, demografik sig'im.

## АННОТАЦИЯ

В статье заключается изучении типов эко туристских ресурсов Ферганской области, выявлении ее природно-географических аспектов и оценке их пригодности для экотуризма. Изучены понятие экотуризма и опыт стран мира, проанализированы возможности экотуризма в Ферганской области, оценены и картированы ресурсы экотуризма в Ферганской области.

**Ключевые слова:** экология, геоэкология, биоэкология, урбоэкология, прикладная экология, демоэкология, экология человека, социальная экология, экономическая экология, общая экология, туризм, рекреация, природный ландшафт, антропогенный ландшафт, природные ресурсы, демографический потенциал.

## ANNOTATION

**Purpose of the study.** It consists of studying the types of eco-tourism resources in the Fergana region, identifying its natural and geographical aspects, and assessing their suitability for ecotourism. The concept of ecotourism and the experience of countries around the world were studied, the possibilities of ecotourism in the Fergana region were analyzed, and ecotourism resources in the Fergana region were assessed and mapped.

**Keywords:** ecology, geoecology, bio ecology, urban ecology, applied ecology, demoeology, human ecology, social ecology, economic ecology, general ecology, tourism, recreation, natural landscape, anthropogenic landscape, natural resources, demographic potential.

Farg'ona viloyati hududida Oloy tizmasining Qatronboshi, Xaydarkon, Nazar, Qizilgaza, Olmaliq, Ispisar, Belmazor; Turkiston tizmasining Kampirqoq, Guzan, Burgan, Qizilsuv, Kulantog', Suratboshi, Oqtosh, Qizilqiyok kabi tarmoqlarining yonbag'irlari joylashgan. Bu tog'larning balandligi 900-2800 metrga boradi. Farg'ona viloyati hududidagi eng baland nuqta So'x tumanidagi Sariqqamish dovonida (2817 m) joylashgan. Pastqamliklar So'x va Shoximardon daryo vodiylari hamda Xaydarkon, Yordon-Shoximardon tog' orasidagi vodiylarda rivojlangan. Tog' mintaqasining 1200-2000 m balandliklarida chala cho'l va tog' dashti, 2000-2800 m balandliklarida esa archazor o'rmonlar mavjud. Archazorlar, asosan, Yordon va Shoximardon vodiysi yaqinlaridagi tog' yonbag'irlarida o'sadi. Tog' mintaqasi geomajmualari kuchsiz o'zgarishga uchragan bo'lib, noyob va qiziqarli tabiat yaratmalari ko'pligi bilan ajralib turadi.



Maydoni 6,8 ming km<sup>2</sup>. Tarkibida 15 tuman (Bag‘dod, Beshariq, Buvayda, Dang‘ara, Yozyovon, Oltiariq, Oxunboboyev, Rishton, So‘x, Toshloq, Uchko‘prik, Farg‘ona, Furqat, O‘zbekiston, Quva), 9 shahar (Beshariq, Marg‘ilon, Rishton, Farg‘ona, Yaypan, Quva, Quvasoy, Qo‘qon, Hamza), 10 shaharcha (Bag‘dod, Dang‘ara, Do‘stlik, Yozyovon, Muqimiy, Oltiariq, Toshloq, Chimyon, Sho‘rsuv, Yangi Marg‘ilon) bor (2015). Markazi — Farg‘ona shaxri.

Hozirgi kunda mamlakatimizda faoliyat ko‘rsatayotgan 865 ta sayyohlik tashkilotlarining 15 dan ortig‘i viloyatimizda faoliyat olib borayotganini alohida qayd etish joiz. Mutaxassislarining e‘tirof etishicha, viloyatimizda turizm va ekoturizm sohasini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoit yetarlidir. Yetti iqlimda mashhur Qo‘qon va Marg‘ilon shaharlaridagi tarixiy obidalar, ulug‘ allomalar qadamjolari va ziyoratgohlar, madaniy meros obyektlari, arxeologiya va me‘morchilik, tabiat yodgorliklarini shunday muhim omillar sirasiga kiritish mumkin. Markaziy Farg‘ona cho‘llarida joylashgan “Tabiat yodgorligi” tabiiy hududida muhofazaga olingan o‘simlik va hayvonot dunyosiga bo‘lgan qiziqish ham mamlakatimiz va xalqaro miqyosda tobora ortib borayapti.

Farg‘ona viloyati hududida hozirgi kunda 376 ta turistik obyekt ro‘yxatga olingan. Shundan 117 ta arxeologik yodgorliklar, 139 ta arxitektura yodgorliklari, 88 ta diqqatga sazovor joylar hamda 32 ta monumental yodgorliklar shular jumlasidandir.

So‘x, Farg‘ona va Beshariq tumanlari, Shohimardon va Markaziy Farg‘ona hududining tabiiy-iqlimi o‘ziga xosligi viloyatimizning ekoturizm sohasidagi ulkan salohiyatidan dalolat beradi. Boisi viloyatimiz hududi va landshaftlarining tuzilmasi juda ham xilma-xil va o‘ziga xosdir. Iqlim sharoitining rang-barangligi viloyatimiz hududlarida tekislik-cho‘l, adirlar, tog‘-dasht va baland tog‘-o‘rmon kabi landshaftlarning shakllanishiga olib kelgan. Jozibali tabiat manzaralari, noyob hayvonot va o‘simlik turlari, diqqatga sazovor madaniy va tarixiy obidalar, xalqimizning dunyoning boshqa biror mintaqasida uchramaydigan etnografiyasi, urf-odatlarini kabi jihatlar ekoturizmni rivojlantirishda qulay imkoniyat hisoblanadi.

Farg‘ona viloyati tabiiy sharoiti jihatidan ekologik turizmning barcha ko‘rinishlarini tashkil qilish uchun qulay hisoblanadi. Chunki, bu hududda inson tomonidan kuchli o‘zgartirilgan hududlar bilan bir qatorda, tabiiy xoldagi noyob yaratilarni ko‘rish mumkin.

Misol uchun, *“Sirdaryo daryosi to‘qayzorlari”* sayyohlik yo‘nalishi daryoning chap sohilidagi 58 km ga cho‘zilgan to‘qayzorlarni o‘z ichiga oladi. Bu to‘qayzorlar rang-barang o‘simlik va hayvonot dunyosi bilan ajralib turadi. O‘z navbatida mazkur hududda muhofaza qilinadigan o‘rmonlar, Sariqamish ovchilik, Beshariq va Dang‘ara baliqchilik xo‘jaliklari, Gumxona, Qayroqqum kabi tabiat yodgorliklari mavjud.

*“Markaziy Farg‘ona”* tabiat yodgorligining umumiy maydoni 142,5 gektar bo‘lib, 122 gektarni o‘rmonlar bilan qoplangan do‘ng-marza qumlar, 14 gektarini qamish, oqbo‘sh, yulg‘unlar o‘sadigan qumlar orasidagi pastqamliklar, 6,5 gektarni sho‘rxok yerlar egallaydi. Hududda “Qizil kitob”ga kiritilgan Farg‘ona chipor kaltakesagi, Shtraux qurbaqaboshi, echkiemar, to‘stovuq, to‘ng‘iz, o‘qilon va ko‘rmailonlar muhofazaga olingan. Bu yerdagi boy o‘simlik va hayvonot olamidani ilmiy, o‘quv-ma‘rifiy, estetik va turizm maqsadlarida unumli foydalanish mumkin.

Tog‘ mintaqasi Farg‘ona viloyatining Beshariq, O‘zbekiston tumanlarining janubiy chekkalarini, So‘x tumani hamda Farg‘ona tumanidagi Shohimardon va Yordon qishloqlari atrofi hududlarini o‘z ichiga oladi. Bu hududlar Oloy-Turkiston tog‘larining shimoliy etaklaridagi past va o‘rtacha baland tog‘larning yonbag‘irlari va tog‘lar orasidagi vodiylarni egallaydi. Oloy-Turkiston tog‘lari turli qiziqarli relyef shakllariga boyligi bilan ajralib turadi. Bu tog‘ tizmalarida tor daryo vodiylari, turli shaklga ega yonbag‘irlar, karlar, g‘orlar, morenalar kabi denudatsion va akkumulyativ relyef shakllarini uchratish mumkin.



Farg'ona viloyati hududida Oloy tizmasining Qatronboshi, Haydarkon, Nazar, Qizilgaza, Olmaliq, Ispisar, Belmozor; Turkiston tizmasining Kampirqoq, G'uzon, Burgan, Qizilsuv, Qulantog', Suratboshi, Oqtosh, Qizilqiyoc kabi tarmoqlarining yonbag'irlari joylashgan. Quyida Farg'ona viloyatidagi turistik ahamiyatga ega bo'lgan ayrim oronimlarning *tasnifini* keltiramiz.

**Sho'rsuv adirlari turistik obyekt sifatida** O'zbekiston va Beshariq tumanlari janubiy qismidagi past tog'larni, Achchiqsuv (Sho'rsuv) daryosi va Sho'rsuv suv omborining muhofaza zonalarini o'z ichiga oladi. Bu hududda *Qiziltov (Qizilbel)*, *Gultatov*, *Ko'ktov* va *Damyog'di g'ori* kabi oronimik obyektlar uchraydi. Sho'rsuv adirlari va uning janubidagi past tog'lar viloyat hududida antropogen ta'sir natijasida nisbatan kuchsiz o'zgargan landshaftlar hisoblanadi. Bu yerda iqlimning quruqligi (80-100 mm), daryo tarmoqlarining kuchsiz rivojlanganligi, nurash mahsulotlarining yirik skeletli va toshloqli bo'lishi qiziqarli va noyob relyef shakllarining hosil bo'lishiga olib kelgan.

**Kampirqoq** eng qiziqarli turistik obyektlar majmuasi hisoblanadi. Bu majmua G'uzon tog'ining janubi-g'arbiy davomi bo'lgan Kampirqoq tog'ida joylashgan (Beshariq tumani). Tog'ning janubiy yonbag'rida yura davrining 160-180 mln yoshli qatlamlari orasida toshga aylangan ko'plab o'simlik qoldiqlari, dinozavr umurtqalari va ikki xil, ya'ni ham oyquloq, ham o'pka bilan nafas oluvchi qiltanoqli baliqlar uchraydi. Bunday noyob topilmalardan ilmiy, o'quv-ma'rifiy va turistik maqsadlarda foydalanish kelajakda katta daromad manbai bo'lishi mumkin.

**Qopchig'ay vodiysi** adirlarni kesib o'tuvchi daryolarning ko'ndalang vodiylarida joylashgan. Viloyatning sharqidan g'arbga tomon Quvasoy (Mo'yan-Qorachatir), Akbarobodsoy (Karamko'l), Marg'ilonsoy (Qirguli), Fayziobodsoy va Oltiariqsoy (Qopchig'ay), So'x daryosi (Cho'ng'ara va Sekitma) adirlarni kesib o'tgan joylarda manzarali "qopchig'ay", ya'ni tor va chuqur vodiylarni hosil qilgan. Masalan, "*So'x daryosining manzarali qopchig'ay vodiysi*" So'x daryosi Sekitma antiklinal tuzilmasini kesib o'tishda hosil bo'lgan. Bu yerda o'ziga xos xususiyatga ega bo'lgan kichik geokomplekslar hosil bo'lgan. Daryoning bu qismida tik yonbag'irli, tor va chuqur hamda faqat yuqori terrasada uchraydigan ko'ndalang vodiylar rivojlangan. Bu vodiylar rekreatsiya maskanlarini barpo etishda, hududining tektonik tuzilishi va faolligini o'rganishda ahamiyatlidir.

**So'x daryosi vodiysining** o'ng sohilida G'aznov antiklinalini tektonik yoriqlar bilan murakkablashgan shimoliy yonbag'rida gipsli qatlamlarda karst hodisasidan hosil bo'lgan Oqtuproq g'ori (uzunligi 150 m, kengligi 10-40 m) joylashgan. Kuzatilgan bu xususiyatlar G'aznov antiklinalining yangi tektonik harakatlarga tortilganligini ko'rsatadi. Yodgorlikdan ilmiy, o'quv-ma'rifiy, turistik maqsadlarda foydalanish mumkin.

So'x vohasidagi 28 g'or va ungurlar (Selungur, Eshma, Obishir, Sur, Bel, Zim, Ovikambar, Bog'ishim va b.) ro'yxatga olindi. Obishir g'orlaridagi madaniy qatlam yaxshi saklangan.

**Devayron g'ori** Devayron qishlog'idan 4 km shimoli-g'arbida, paleozoy (quyi devon) ohaktoshlaridan tuzilgan gumbazsimon qoyada joylashgan. Uning umumiy uzunligi 103 m, og'zining kengligi 1,5 m, o'rtacha kengligi 3,6 m. G'orning ayrim joylari 6 metrgacha kengayadi. Umumiy maydoni 370 m<sup>2</sup>, hajmi 1488 m<sup>3</sup>. G'orning og'zidan 10 m pastda qoya etagida buloq hosil bo'lgan. Uning yaqinlarida mox qoplami kuzatiladi. Devayron g'ori Farg'ona viloyati hududida joylashgan eng yirik karst g'oridir. Undan ilmiy, o'quv-ma'rifiy rekreatsiya va turizm maqsadlarida foydalanish mumkin.

**So'x darasi** O'zbekiston va Qirg'iziston respublikalari o'rtasidagi davlat chegarasidan shimolga tomon Sarikanda va Qizilqiyoc qishloqlarigacha cho'zilgan So'xning chuqur va tor vodiysida joylashadi. Vodiya Qorato'qay va Tayan qishloqlari orasida daryo terrasalarining soni va nisbiy balandligi o'zgaradi. Masalan, Qorato'qay qishlog'ida uchta terrasa kuzatilsa,



daryo vodiysi ayrim joylarda 3-4 m ga torayadi. Bu xususiyatlar yangi tektonik harakatlarning faolligi bilan izohlanadi.

**Obshirsoy g'orlari** So'xning shimoli-sharqida, paleozoy ohaktoshlari va slaneslaridan tuzilgan Haydarkon tog'ining janubiy yonbag'ri etaklarida joylashgan. U 5 dan ortiq g'orlar guruhidan tashkil topgan. G'orlar asosan karst hodisasi va qisman antropogen omil ta'sirida hosil bo'lgan. Ularning eni 8-26 m, balandligi 10-12 m ga boradi. G'orlardan mezolit, ya'ni o'rta tosh asri davriga oid arxeologik ashyolar: tosh, qadama pichoqlar, parmalar, bigizlar, qirg'ichlar va boshqalar topilgan. Ular qadimgi odamlarning yashash joylari bo'lgan.

**Oqtuproq g'ori** – So'x daryosi vodiysining o'ng soxilida Gaznov antiklinalining tektonik yoriqlar bilan murakkablashgan shimoliy yonbag'rida gipsli qatlamlarda karst xodisasi xosil bo'lgan. Uning uzunligi 150 m, kengligi 10-40 m ga teng. G'ordan ilmiy, o'quv-ma'rifiy, rekreantlar va turistlar uchun sayohat va sog'lomlashtirish maqsadida foydalanish mumkin.

**Chashma bulog'i** – So'x tumanida joylashgan bo'lib, tuzilishi doirasimon shaklli, diametri 20 metr, ko'ndalangi kesimi 7-8 metrdir. Bulog' hovuzining maydoni 50 m<sup>2</sup> dan ortiq, chuqurligi 2-4 metrga boradi. Bulog' suvi juda tiniq va havorang bo'lib, juda mazaligi bilan ajralib turadi. U Obshirsoyning chap irmog'i bo'lgan Ko'lizardaksoyning vodiysida hosil bo'lgan.

**Shoximardon hududi** - respublikamiz aholisining, shuningdek chet ellik turistlarning sevimli dam olish maskanlaridan biri. Lekin hozirgi kunda tartibsiz dam olishlar, turli qurilishlar va xo'jalik faoliyati ta'sirida Shoximardon tabiati o'zining noyob tabiiy xususiyatlarini yo'qotib bormoqda. Uning tabiatidan sog'lomlashtirish, rekreatsiya, turizm va boshqa maqsadlarda foydalanish uchun qulay imkoniyatlar mavjud.

**“Satkak buloqlari”** (10 ga yaqin) Farg'ona tumanida Satkak adirining shimoliy-sharqiy chekkasidagi qadimgi daryo o'zanida joylashgan bo'lib, 5 ta xovuzli qaynar buloqlar guruxi mavjud. Bulog' suvlarini rangi to'q tusli, tiniq va ta'mi mazali. Ular yer osti suvlarini Qopchug'ay va Satkak adirlari tomonidan tuzilishidan xosil bo'lgan.

Buloqlar atroflariga ekilgan tol, terak va boshqa manzarali daraxtlar bu joyda o'ziga xos mikroiklimni xosil qilgan. Issiq yoz kunlari xam buloqli hududning salqin va toza xavosi, shifobaxsh suvlari inson organizmiga xuzur bag'ishlaydi. Bu erda choyxonalar, dam olish joylari xamda ziyorat qilinadigan mozar mavjud. Ziyoratgox yil davomida kishilar bilan gavjum bo'ladi. Satkak buloqlarini gidrologik yodgorlik sifatida muxofaza qilish tavsiya qilingan.

**“Arsif buloqlari”** So'x konglomeratlaridan tashkil topgan Arsif antiklinal adirining shimoliy tik yonbag'rida joylashgan. Siljiqlar bilan murakkablashgan. Eng ko'p buloqlar siljiqqa yaqin joylarda kuzatiladi. Adir yuzasida shimilgan suvlar adirning shimoliy yonbag'ri etagidagi yoriqlar bo'yicha yuqoriga ko'tarilib, ko'plab buloqlarni hosil qilgan.

Bulog' suvlari ta'sirida namlangan shimoliy yonbag'irda tol, terak, jiyda, chinor, kayrag'och, o'rik, na'matak, zirk, do'lana shuningdek botqoqlashgan joylarda qamish, qovg'a, qiyoq, yantoq, yilg'un, yakan va boshqa nam sevuchi o'simliklarning qalin qoplami xosil bo'lgan. Gidrologik yodgorlikdan ilmiy, rekreatsiya, turizm, madaniy-ma'rifiy, estetik, sog'lomlashtirish maqsadlarida foydalanish mumkin.

Viloyatimizning tabiiy suv havzalari bilan bog'liq yodgorliklari, adir geokomplekslaridagi ekoturistik obyekt va hududlar ham o'ziga xos. O'zbekiston tumanida 21 ta, Uchko'prik va Rishton tumanlaridagi 2 ta qaynar buloqlar, asriy qayrag'och va sharq chinori (Oltiariq tumani), ko'l-bulog' (Toshloq tumani), Akbarobod qumlari (Quva tumani) singari sayyohlik obyektlari davlat muhofazasida. Beshariq, O'zbekiston, Rishton, Oltiariq, Quva va Farg'ona tumanlaridagi adiryoni tekisliklarida mevazor bog'lar barpo etildi. Zilha qumlari, Sariqo'rg'on tepaligi, Kitkontepa, Saur bulog', Yomonjar jarlari, qadimiy pistazorlar, Oqbilol g'ori kabi tabiat yodgorliklari viloyatimizning ekoturistik obyektlari ro'yxatini yanada kengaytiradi.



Ekoturizm tarixiy madaniy merosimiz, milliy mentalitetimizga xos ezgu fazilatlarini olamga keng targ'ib etish barobarida yangi ish o'rinlari yaratish va aholi turmush darajasini yaxshilash, eng asosiysi katta daromad keltirishi bilan ahamiyatli ekanligini aslo unutmash zarur.

#### ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES).

1. Nigmatov A., Shomuratova N. Ekologik turizm — yangi fan sohasi // Ekologiya xabarnomasi, 2003. 6-son. 14—17-b.
2. Nigmatov A., Shomurotova N. O'zbekistonni ekoturistik rayonlashtirish tajribasi. Ekologiya xabarnomasi. j.№2, —Toshkent. 2007. 46-54-b.
3. Mominov Daniyori Gulomovich. USE OF TOPONOMIC DATA IN GEOGRAPHY LESSONS. Eur. Chem. Bull. 2023,12(Special Issue 1, Part-B), 1896-1901. Article History: Received: 01.02.2023.
4. Mominov Daniyori Gulomovich. GEOECOLOGICAL BASIS OF SOUTH FERGANA NATURE PROTECTION AND RATIONAL USE OF NATURAL RESOURCES. International Journal of Early Childhood Special Education (INT-JECSE) DOI:10.9756/INTJECSE/V14I8.18 ISSN: 1308-5581 Vol 14, Issue 08 2022.
5. Mo'minovi D.G'. Qo'ziboeva O.M. SUG'ORILADIGAN YERLARDAN FOYDALANISH VA LANDSHAFT-MELIORATIV BAHOLASH (ANDIJON VILOYATI MISOLIDA). «Ekonomika i sotsium» Vypusk №1(104) 2 chast (yanvar, 2023). Sayt: <http://www.iupr.ru>. ISSN 2225-1545. UDK 004.02:004.5:004.9. (Mominov D.G. Koziboeva O.M. USE OF IRRIGATED LANDS AND LANDSCAPE-MELIORATIVE ASSESSMENT (ANDIJAN REGION AS AN EXAMPLE). "Economics and society" Vypusk #1(104) 2 chapters (January, 2023). Website: <http://www.iupr.ru>. ISSN 2225-1545. UDK 004.02:004.5:004.9).
6. Muminov Daniyori Gulomovich. SOME CONSIDERATIONS ON THE ECOLOGICAL STATUS OF LAND RESOURCES GALAAXY. **INTERNATIONAL INTERDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL (GIIRJ)**. Volume 10, Issue 12, December, 2022. ISSN: 2347-6915 SJIF Impact Factor: 7.718.
7. Mo'minovi Doniyor Gulomovich. Geoekologik muammolarni bartaraf etishda agrodemografik bosimni hisobga olish. Academic research in educational sciences. volume 2 | ISSUE 3 | 2021 ISSN: 2181-1385 Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723. (Mominov Daniyori Gulomovich. Considering agrodemographic pressure in solving geoeological problems. Academic research in educational sciences. volume 2 | ISSUE 3 | 2021 ISSN: 2181-1385 Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723).
8. Muminov Doniyor Gulomovich. Some issues of socio-economic geographical study of rural areas. TJG - Tematics journal of Geography. Vol-5-Issue-1-2021. ISSN – 2277-2995. <http://thematicsjournals.in> UIF 2020= 6.722 IFS 2020 = 7.652.
9. Д.Ф.Мўминов. Улучшение геоэколого-хозяйственного состояния сельской местности путём оптимизации агродемографического давления. “Илм сарчашмалари”. Урганч давлар университетининг илмий-назарий, методик журнали. 2022-4. (D.G.Mўminov. Improving the geo-ecological and economic condition of rural areas by optimizing agro-demographic pressure. “Ilm sarchashmalari.” Urganch davlar universityining ilmiy-nazariy, journal methods. 2022-4).